



Loyiha rahbari:

f.f.d, prof. Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich.

E-mail: shsirojiddinov@navoiy-uni.uz

+998 97 734 19 61

Loyihaning maqsadi:

O‘zbek adabiyoti tarixining yetti jildlik monografik tadqiqotini yaratish. Amalga oshirilishi mo‘ljallangan ushbu yirik ilmiy loyihada respublika va xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlar umumlashtirilib, o‘zbek adabiyotining tarixiy tadriji haqida yaxlit tasavvur beriladi, ma’naviy merosimizning mumtoz namunalari va ularning ijodkorlari haqida aniq faktlarga asoslangan ilmiy xulosa va natijalar bayon etiladi.

Loyihaning qisqacha tavsifi:

O‘tgan davr mobaynida o‘zbek adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan yangi nomlar kashf etildi, ularning adabiy merosi tadqiq qilinib, ilmiy muomalaga kiritildi, o‘nlab adabiy-tarixiy manbalar matnshunos olimlarimiz tomonidan nashrga tayyorlandi.

Kutilayotgan natija:

O‘zbek adabiyoti tarixini mustaqillik mafkurasi va sof ilmiy yondashuvlar, tarixiy haqiqatlar asosida yoritish, shakllangan ilmiy muhitda har bir fakt va dalilni ilmiy ekspertizadan o‘tkazib, yangi faktik materiallar bilan boyitish nazarda tutilgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tarixining ko‘p jildlik monografiyasini yaratish jahon turkologiya fanining yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi. Natijada yangicha talqinlarga asoslangan, aniq faktlar bilan dalillangan “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning yetti jildli monografiyasi yaratiladi.

Qo‘llanish doirasi:

Monografiya oliy ta’lim bosqichlarining filologiya fakultetlari, adabiyotshunos olimlar, doktorant va ilmiy izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining o‘z kechmish yo‘li, adabiy merosi, ma’naviy qadriyatlarini o‘rganishda ham monografiya asosiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Amalga oshirish: OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” nomli fundamental loyiha doirasida (320 000 000)